

SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLAR TASNIFI, TURLARI HAMDA HISOBGA OLISH VAZIFALARI

Turayeva Gulizahro

Guliston Davlat Universiteti "Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi

Sherxonov Akrom¹

Abduhalilov Abdumalik²

Xusanov Xurshid³

Rahmonqulov Halil⁴

Guliston Davlat Universiteti SAA fakultet talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7866326>

Annotatsiya: Maqola soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzдорlikni kamaytirish yo'llariga bag'ishlangan bo'lib, qarzдорlikni majburiy undirish mexanizmidagi o'zgarishlar va takomillashtirish masalalari atroflicha yoritilgan. Tadqiqot natijasida tegishli xulosalar shakllantirilib, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq qarzi, qarzдорlik, majburiy undirish, soliq ma'muriyatchiligi, Soliq kodeksi, imtiyozlar, soliq to'lovchi, soliq majburiyati, tadbirkorlik subyektlari.

Kirish: O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismi aynan soliqlar va yig'imlar hisobidan shakllanadi. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar natijasi o'laroq byudjet daromadlarining samarali shakllanishiga erishildi, pirovardida davlatimiz o'z oldiga qo'ygan muhim vazifalarni amalga oshirish hamda ko'zlangan marralarni zabt etish maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar samarasini yana-da oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida 2017-2021

Soliq deganda soliq kodeksida belgilangan, O'zRning Davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg'armasiga to'lanadigan majburiy beg'araz to'lov tushuniladi.

Yig'im deganda byudjet tizimiga soliq kodeksida yoki boshqa qonun hujjatlarida belgilangan majburiy to'lov tushuniladi, bu yig'imning to'lanishi uni to'lovchi shaxsga nisbatan vakolatli organ yoki uning mansabdor shaxsi tomonidan yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan unga muayyan huquqlarni yoxud ruxsat etuvchi hujjatlarni berish shartlaridan biri bo'ladi.

Shaxsning zimmasiga sud tartibida yuklatilgan jarimalar va boshqa to'lovlar, shuningdek qonunda belgilangan hollarda mol-mulkni musodara qilish hamda boshqacha tarzda olib qo'yish soliqlar yoki yig'imlar jumlasiga kirmaydi.

Muxokamalar va natijalar

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar soliqlar va yig'imlarning belgilangan muddatda, to'liq hajmda tushishiga, byudjet va maqsadli jamg'armalarning xarajat qismini o'z vaqtida moliyalashtirishga, pirovard natijada esa vatan ravnaqi va aholi turmush darajasining yana-da yaxshilanishiga xizmat qiladi. O'z navbatida, ushbu mablag'larning belgilangan muddatda va to'liq hajmda tegishli byudjet va maqsadli jamg'armalarga kelib tushmasligi, davlatning ma'lum davr uchun belgilangan vazifalarni amalga oshirilishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Soliq to'lovchining muayyan soliq yoki yig'imni to'lash, mavjud soliq qarzini uzish majburiyati belgilangan soliqlar va yig'implarni o'z vaqtida hamda to'liq hajmda hisoblab chiqarish va to'lash majburiyati hisoblanadi. Soliq majburiyatini ta'minlashning qonunchilikda belgilangan bir nechta usullari mavjud - bank kafolati; - mol-mulk garovi; - kafillik; - soliq to'lovchining mol-mulkini xatlash; - bankdagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarning to'xtatilishi; - penya Hisoblab chiqarilgan (hisoblangan) va belgilangan muddatlarda to'lanmagan soliqlarning, shu jumladan ular bo'yicha bo'nak va joriy to'lovlarning summolari, shuningdek Soliq kodeksida belgilangan muddatda to'lanmagan moliyaviy sanksiyalar va penyalar soliq qarzi deb e'tirof etiladi.

Soliq majburiyatining bajarilishini ta'minlash usullari yordamida majburiyat bajarilmagan taqdirda ya'ni, soliq qarzi to'lanmasa, mamlakatimizda soliqlar va yig'implardan bo'lgan qarzdorlikni qonunchilikda belgilangan me'yorlar asosida majburiy tartibda undirish choralari qo'llaniladi. Amaliyotda soliq qarzini majburiy tartibda undirish choralaridan tashqari ayrim hollarda soliq to'lovchilarni qo'llab quvvatlash maqsadida ularning soliq qarzidan qisman, to'liq voz kechish, hisobotlarini kechiktirib topshirishga ruxsat berish va to'lash muddatlarini kechiktirish kabi imtiyozlar va imkoniyatlar berish holatlari ham uchray turadi. 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar (turlari bo'yicha)" hisobvarag'ining kreditida byudjetga to'lanishi kerak bo'lgan majburiyat summasi olinadigan hisobvaraqlar, davr xarajatlari, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash uchun foydaning ishlatilishi, mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi. Yakuniy hisob-kitobda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha byudjetga ilgari o'tkazilgan bo'nak to'lovlari 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar (turlari bo'yicha)" hisobvarag'ining debet tomonida byudjetga bo'nak to'lovlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar (4400) bilan bog'langan holda aks ettiriladi. Byudjetga haqiqatda o'tkazilgan summalar 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar (turlari bo'yicha)" hisobvarag'ining debet tomonida pul mablag'larini hisobga oluvchi hisobvaraqlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar (turlari bo'yicha)" hisobvarag'i bo'yicha analitik hisobi har bir soliq turlari bo'yicha alohida yuritiladi. Har bir soliq va yig'im turi bo'yicha 6410 hisobvaraqda alohida hisobvaraqlar ochiladi. Masalan: 6410 "Qo'shimcha qiymat solig'i", 6411 "Aktsiz solig'i", 6412 "Yuridik shaxslardan foyda solig'i", 6413 "Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i" va boshqalar. Byudjetga hisoblangan soliq va yig'implar summasi, olinadigan manbasiga qarab hisobvaraqlar bog'lanishi mumkin: D 2010, 2310, 2510, 2900, 4410, 9430, 9810 va boshqalar K 6410. Byudjetga to'lanadigan summalar o'tkazilganda hisobvaraqlar bog'lanishi D 6410 va K 5110, 5200, 5500.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish lozimki, tadbirkorlik faoliyati sohasida muammolarni hal etish orqali biznesni rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish, mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolatli himoyasini ta'minlash maqsadida hamda pandemiyalar va global iqtisodiy inqiroz holatlariga sabab bo'luvchi vaziyatlar natijasida iqtisodiyot tarmoqlariga ularning salbiy ta'siri kuchaygan holatlarda soliq to'lovchilarda qarzdorlikning paydo bo'lishini, mavjud qarzdorliklarning ortib ketishini oldini olish, ularga yana-da yengilliklar yaratish maqsadida berilgan soliq to'lovchilarni ma'lum bir muddatga soliqlar va yig'implardan ozod qilish, soliq stavkalarini

pasaytirish imtiyozlari hamda hisobotlar va deklaratsiyalarni taqdim etish, soliqlar va yig'implarni kechiktirib to'lash imkoniyatlarini amaldagi Soliq kodeksiga qo'shimcha moddalar kiritish, tegishli moddalarga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish orqali belgilab qo'yilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: "Adolat" 2016 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 21.12.1995 y. 163-I-son va 29.08.1996 y. 256-I-son Qonunlari bilan tasdiqlangan (Oxirgi marta O'zR 23.05.2019 y. O'RQ-542-son Qonuni bilan o'zgartirishlar kiritilgan).
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 21.12.1995 y. 161-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan (Oxirgi marta O'zR 09.01.2019 y. O'RQ-514-son Qonuni bilan o'zgartirishlar kiritilgan).
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O'zR 30.12.2019 y. O'RQ-599 -son Qonuni bilan tasdiqlangan
5. «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» O'zR Qonuni 2019 yil 5 noyabrdagi O'RQ-580-son yangi tahrir.
6. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zR qonuni (yangi tahrir). 13.04.2016 y. № O'zRQ-404.
7. Qaxxorovna, T. G., & Ikrom o'g'li, X. J. (2023). QISHLOQ XO'JALIGIGA BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY QILISH. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(2), 85-90.
8. Qudratullaevna, A. M., Qaxxorovna, T. G., & Eshbulovich, M. H. (2023). SUN'IY INTELLEKT VA UNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(2), 65-69.
9. Turayeva, G. (2023). FACTORS FOR INCREASING THE STABILITY OF GRAIN PRODUCTION AND PERFORMANCE INDICATORS. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(6), 45-50.
10. Otabekov, J., Alikulov, R., Turayeva, G., & Iskanova, M. (2023, April). THE "GREEN ECONOMY" AND ITS PRIORITY FOR IMPROVING ECONOMIC RELATIONS. In *International Conference on Business Management and Humanities* (Vol. 1, No. 1, pp. 20-24).
11. Turayeva, G., Ortiqboyeva, S., Qo'ziyev, I., Rasulov, A., Tojiboyeva, T., Turdibekov, U. B., ... & Yangiboyeva, M. (2022). MADE IN UZBEKISTAN BRENDI BILAN SOTILAYOTGAN EKSPORT MAXSULOTLARINING STATISTIK KO'RSATKICHLARI. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot*, 1(28), 240-243.